

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01-RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**YUSUPOVA NARGIZA NIGMATOVNA**

**KLASTER SHAROITIDA INGLIZ TILINI TEZKOR O‘QITISHNING  
ARALASH TA’LIM TEXNOLOGIYALARI  
(nofilologik ta’lim yo‘nalish talabalari misolida)**

**13.00.02 - Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Chirchiq – 2023**

**UDK: 378.091.33:811.111**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)  
on pedagogical sciences**

**Yusupova Nargiza Nigmatovna**

Klaster sharoitida ingliz tilini tezkor o'qitishning aralash ta'lim  
texnologiyalari (nofilologik ta'lim yo'nalish talabalari misolida).....3

**Юсупова Наргиза Нигматовна**

Смешанные образовательные технологии ускоренного обучения  
английскому языку в кластерных условиях (для студентов  
нефилологического профиля).....25

**Yusupova Nargiza Nigmatovna**

Mixed educational technologies of accelerated teaching of English in  
cluster conditions (for non-philological students).....49

**E'lon qilingan ishlar ro'yhati**

Список опубликованных работ  
List of published works.....53

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01-RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**YUSUPOVA NARGIZA NIGMATOVNA**

**KLASTER SHAROITIDA INGLIZ TILINI TEZKOR O‘QITISHNING  
ARALASH TA’LIM TEXNOLOGIYALARI  
(nofilologik ta’lim yo‘nalish talabalari misolida)**

**13.00.02 - Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Chirchiq – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.Phd/Ped3223 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb sahifasida (cspi.uz.ilmiy-kengash) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Babaxodjaeva Lobar Gafurjanovna**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

**Rasmiy opponentlar:** **Maxkamov Ulfat Ilhamovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor  
**Boymurodova Gulzoda Toshtemirovna**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel.: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45-41; e-mail: chdpi\_kengash@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel.: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45-41 e-mail: chdpi\_kengash@umail.uz.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2023-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**U.N.Xodjamqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, p.f.d. (DSc), dotsent

**F.T.Rajabov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, g.f.f.d. (PhD), dotsent

**V.B.Fayziyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, b.f.d (DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon ta'lim amaliyotida ta'lim oluvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda pedagogik va axborot texnologiyalarini keng ko'lamda qo'llashga bo'lgan ehtiyoj tobora ortmoqda. Shu jihatdan raqamli axborot-kommunikatsion texnologiyalarining taraqqiyoti natijasida yuz berayotgan globallashtirish va axborotlashtirish jarayonlari ta'lim tizimini zamonaviylashtirish zaruratini keltirib chiqarib, xalqaro muloqot vositasi hisoblangan xorijiy tillar ta'limiga bo'lgan talabni yanada kengaytirmoqda. Rivojlangan Germaniya, AQSH, Fransiya va Buyuk Britaniya kabi davlatlardagi xorijiy tajriba bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirishda raqamli axborot texnologiyalar samaradorligi, xususan, pedagogik ta'lim tizimini raqamlashtirishning yangi sifat bosqichiga ko'tarish maqsadida chet tillarini an'anaviy hamda onlayn, shuningdek, aralash shaklda o'qitishning pedagogik imkoniyatlarini oshirish bo'yicha amaliy ishlar olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida innovatsion yondashuvlar asosida talabalarning axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan modernizatsion didaktik tizimni takomillashtirish, metakompetensiyalarni shakllantirish asosida talabalarda xorijiy tillarni tezkor o'rganishning samarali shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Butungi kunda shiddat bilan o'zgarib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy fenomenlar, xususan, pandemiya sharoitida uzluksiz ta'lim tizimi muassasalarida xorijiy tillarni aralash ta'lim shaklida o'qitishning nazariy asoslarini tushunish, ta'lim oluvchilarning tanqidiy-tahliliy fikrlash fazilatlarini nazarda tutgan holda mustaqil ravishda xorijiy tilni o'rganish, klasterli yondashuv asosida butun ta'lim tizimida an'anaviy va onlayn ta'limning maqbul integratsiyasini ta'minlash mexanizmi, raqamli ta'lim muhiti sharoitida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning didaktik-metodik tizimini takomillashtirishni taqozo qiladi.

Respublikamizda ta'lim tizimining barcha bosqichlariga raqamli axborot-kommunikatsion texnologiyalarni keng joriy etgan holda xorijiy tillar ta'limini, uning metodikasini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilib, muqobil ta'lim shakllarida muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat olib bora oladigan, shaxsiy kompetentlikka erishgan o'qituvchilarni tayyorlash borasida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish"<sup>1</sup> aralash ta'limning didaktik-metodik imkoniyatlarini yanada keng qo'llash zaruratini keltirib chiqarmoqda. Ta'lim tizimiga keng qamrovli o'zgarishlar olib kirish zarurati COVID-19 pandemiyasi sababli yuzaga keldi. Aynan 2020-yil 27-martda O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 233-sonli buyrug'i esa O'zbekiston ta'lim tizimida onlayn o'qitish bo'yicha nafaqat texnik, balki metodik ta'minot yetarli emasligini ko'rsatdi. Natijada, onlayn ta'lim jarayonini

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.// O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. –T., 2017. –B.39.

sifatli tashkil etish texnologiyalarini takomillashtirish, noan'anaviy ta'limiy interfaol metodlar yordamida ingliz tilini o'qitish, talabalarni kreativ, tanqidiy-tahliliy fikrlashga o'rgatishni jadallashtirishga qaratilgan zamonaviy didaktik-metodik yutuqlardan foydalangan holda chet til kompetensiyalarini oshirish muhim vazifaga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mamlakatimizda internet va raqamli texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy etish, elektron ta'limni rivojlantirish, raqamli axborot-texnologiyalarning ta'limiy dasturlarini yaratish va didaktik-metodik imkoniyatlarini takomillashtirish U.Begimqulov, A.Ashirova, R.Bokiyevlar<sup>2</sup> tadqiqotlarida o'rganilgan bo'lsa, onlayn ta'limni o'z tarkibiga oluvchi masofaviy ta'limning nazariy va amaliy jihatlari A.Pardayev, A.Asqarov, A.Ibraymov, L.Babaxodjayeva, N.Mannanovlar tomonidan tadqiq etilgan. Pedagogik ta'limda klaster tizimi bilan bog'liq innovatsion qarashlar G'.Muhamedov, Sh.Mardonov, U.Xodjamqulov, Sh.Botirovalarning ishlarida o'z aksini topgan. O'qitishda aralash ta'limni tatbiq etish masalalari B.Xalmatova, S.Xudayberdiyev, J.Djumanov, B.Prenov, L.Babaxodjayevalar<sup>3</sup> tomonidan muayyan darajada o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan V.Plotnikov,<sup>4</sup> S.Xomyakova, M.Kudlayev, G.Sidorovlar raqamli texnologiyalar

---

<sup>2</sup> Begimqulov U.Sh., Boqiyev R.R., To'xtamatov X.R. Masofaviy ta'lim terminlari izohli lug'ati. - T.: TDPU, 2008. - 57 b.; Abduqodirov A.A. Bo'lajak o'qituvchilarning axborot kommunikatsiya texnologiyalariga oid kompetentligi. —"Pedagogning shaxsiy va kasbiy axborot maydonini loyihalashda axborot kommunikatsiya texnologiyalariga oid kompetensiyalar" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materialari. – T.: TDPU, 2015. -3 b

<sup>3</sup> Xalmatova B.T., Xudayberdiyev S.A., Djumanov J.X., Prenov B.B., U.O.Xudanov. Oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini ta'minlash: Ye-learning: Monografiya/ Toshkent tibbiyot akademiyasi. 2017. - 106 b.; Babaxodjayeva L.G. Talabalarning pedagogik kompetentligini rivojlantirish jarayonida aralash ta'lim modelini joriy etishning nazariy va amaliy asoslari / ped. fan. buy. dokt. (DSc) diss...avtoref. Chirchik. 2021. -B. 32.

<sup>4</sup> Плотников В. А. Цифровизация производства: теоретическая сущность и перспективы развития в российской экономике // Научная электронная библиотека «Киберленинка», – СПб., 2018.; Хомякова С. С. Трансформация и закрепление термина «цифровизация» на законодательном уровне // Молодой ученый. – 2019. – №41. – С. 9-

asosida ta'limni tashkil etish muammasini tadqiq etgan bo'lsa, A.Vorobeva,<sup>5</sup> O.Kryukova, L.Klobukova, A.Gazizova, I.Karimullin, I. Rashodova, Ye.Vinogradova, N.Samarina o'z ilmiy izlanishlarida xorijiy tillarni an'anaviy va onlayn o'qitish muammosini o'rganishgan<sup>6</sup>.

Xorijiy davlatlarda aralash ta'lim shakli turli aspektlarda A.Pearcy, A. Dave, D.Clark, C.J.Bonk, J.Stein, A.Al-Hassan kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo'lsa, oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini an'anaviy va onlayn o'qitish metodikasi, uning ijobiy va salbiy tomonlari C.Winter, K.Nelson,<sup>7</sup> M.Sizemore va M.Chamorro tomonidan yoritib berilgan<sup>8</sup>.

Turli soha vakillari tomonidan ta'lim jarayonini samarali tashkil etish borasida ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, pedagoglarni tayyorlash tizimini raqamlashtirish, ayniqsa, hozirgi globallashtirish sharoiti talablari asosida ta'lim klasteri va aralash ta'lim sharoitida ingliz tilini o'qitish-o'rganishda aralash ta'limning samaradorligini aniqlash va uning metodikasini takomillashtirish masalasining yetarlicha o'rganilmaganligi mazkur dissertatsiya mavzusini belgilab berdi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining 01-729 "Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslarini yaratish va uni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish" (2018-2021 yy.) mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

---

12.; Кудлаев М. С. Процесс цифровизации образования в России // Молодой ученый. – 2018. – №31. – С. 3-7.; Сидоров Г. Цифровой университет: применение цифровых технологий в современных образовательных учреждениях [Электронный ресурс]. URL: <https://www.itweek.ru/idea/article>

<sup>5</sup> Воробьева А.А. Современное образование: онлайн или оффлайн? Всероссийская объединенная конференция «Интернет и современное общество» 2018. – С. 78-80.; Крюкова О.С. Традиционная и «цифровая» педагогика в современном образовательном пространстве // Россия: тенденции и перспективы развития. 2018. – № 13 (1). – С. 856-57.; Самарина Н.В., Газизова А.И. Интеграция аудиторной и дистанционной форм обучения иностранному языку в вузе // Проблемы современного педагогического образования. Серия: Педагогика и психология. - Вып. 59. м Ч. 2. - С. 316-319.; Расходова ИА., Каримуллин И.Ф. Роль дистанционного обучения иностранному языку студентов вузов и применение дистанционных технологий как альтернативу традиционным методам обучения // Современные проблемы филологии, педагогики и методики преподавания языков. Научно-практической конференция. – К., Изд-во КГТУ, 2020. – С.62-64.; Виноградова Е.Н., Клобукова Л.П. В поисках золотой середины: дистанционное обучение онлайн и офлайн // Вестник РУДН. Серия: Вопросы образования: языки и специальность. 2018. – № 15 (12). – С. 195-209.

<sup>6</sup> Askarov A.D. Xalq ta'limi xodimlari malakasini masofadan oshirish tizimini takomillashtirish: Ped. fan. fal. d-ri (PhD) ... diss. avtoref. –T., 2017. –121 b.; Ibraymov.A.E. Umumta'lim maktabi fizika o'qituvchilari masofaviy malaka oshirishlarining ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish. Ped. fan. fal. d-ri (PhD) ... diss. 2017. 205 bet.; Mannanova.N.X. O'zbekistonda pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimida masofaviy ta'limning shakllanishi va rivojlanishi. Ped. fan. fal. d-ri (PhD) ... diss. T.: 2019. 143-bet.

<sup>7</sup> Winter C.S. Online and face-to-face activities of non-native English speakers. Doctor of Philosophy Dissertation, 2013. 143 p.; Nelson K. Effectiveness of Online English Composition Learning Versus Classroom Learning. Doctor of education Dissertation Proposal Draft, 2008. 98 p.; Sizemore M. L. Personalized online learning labs and face-to-face teaching in first-year college English courses. Doctor of philosophy dissertation, 2017. 185 p.; Chamorro M.M. Comparing Online English Language Learning and Face-to-Face English Language Learning at El Bosque University in Colombia. Doctor of Philosophy Dissertation. 2018. 135 p.

<sup>8</sup> Percy A.G. Finding the perfect blend: a comparative study of online, face-to-face, and blended instruction. Doctor of Philosophy (Information Science) Dissertation. 2009. 121 p.; Dave A. A Comparison of student performance in an online class versus a face-to-face (traditional) class: a meta-analysis. Doctor of Education dissertation. 2010. 105 p.; Clark, D. Learning experience design- Kogan Page Publishers, 2021.- p 10.; Stein, J. Essentials for Blended Learning. - 2nd edition. Routledge, 2020.- p 34.; Al-Hassan A. A comparison of e-learning and traditional classroom teaching: Petra University. Conf., IATEFL. 2010.

**Tadqiqotning maqsadi** oliy o‘quv yurtlari nofilologik ta’lim yo‘nalishlarida ingliz tilini aralash ta’lim texnologiyalari asosida tezkor o‘qitishning metodik tizimini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

“aralash ta’lim” tushunchasining mazmun-mohiyatini va o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy-pedagogik jihatdan aniqlashtirish; aralash ta’lim sharoitida talabalarga ingliz tilini tezkor o‘qitishning metodik tuzilmasini takomillashtirish;

nofilologik ta’lim yo‘nalishi talabalariga ingliz tilini aralash ta’lim texnologiyalari asosida tezkor o‘qitishning didaktik modelini takomillashtirish;

aralash ta’lim sharoitida talabalarga xorijiy tilni o‘qitish jarayoniga klasterli yondashuvni tatbiq etishning pedagogik mexanizmini takomillashtirishga doir tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida oliy o‘quv yurtlari nofilologik ta’lim yo‘nalishlarida ingliz tilini aralash ta’lim texnologiyalari asosida tezkor o‘qitishning metodik tizimini takomillashtirish jarayoni belgilanib, pedagogik tajriba-sinov ishlariga TDTU, TDO‘TVAU, CHDPUlarning jami 386 nafar respondent-talabalari jalb etildi.

**Tadqiqotning predmetini** oliy o‘quv yurtlari nofilologik ta’lim yo‘nalishlarida ingliz tilini aralash ta’lim shaklida o‘qitish metodikasini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida ingliz tilini o‘qitishga oid ilmiy-metodik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o‘rganish, tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, sotsiometrik (suhbat, anketa, test, intervyu), diagnostik (so‘rovlar, test o‘tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), tajriba-sinov, monitoring, matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

“aralash ta’lim” tushunchasining mazmun-mohiyati va ilmiy-pedagogik xususiyatlari an’anaviy, masofaviy va internet orqali mustaqil ta’lim olishning integrativ shakllarining kasbiy tayyorgarlik jarayonini jadallashtirishga doir tashkiliy, analitik, diagnostik va prognostik faoliyat bilan gorizont va vertikal integratsiyalashning autopedagogik imkoniyatlarini innovatsion ta’lim muhitiga mos holda kengaytirish orqali aniqlashtirilgan;

aralash ta’lim sharoitida talabalarga ingliz tilini tezkor o‘qitishning metodik tuzilmasi kasbiy tayyorgarlik jarayonining motivatsion, kognitiv, faoliyatga doir, aksiologik, akmeologik, refleksiv komponentlarini aralash ta’lim texnologiyalarini erkin va maqbul tanlash, identiv maqsadni belgilash, real sharoitda ta’lim muhitini dinamik tarzda o‘zgartirib borish tamoyillari bilan qayta aloqaga kirishuv darajasi barqarorligini hisobga olish orqali takomillashtirilgan;

nofilologik ta’lim yo‘nalishi talabalariga ingliz tilini aralash ta’lim texnologiyalari asosida tezkor o‘qitishning didaktik modeli o‘quv materiallarini yirik bloklarga birlashtirish orqali elektron ko‘rinishda o‘qitish (Replacement) hamda an’anaviy ta’limni innovatsion talablarga muvofiq tashkil etish (Supplemental) modellarining milliy kredit-modul tizimiga adaptivlik darajasini qiyosiylik asosida ta’minlash orqali takomillashtirilgan;

aralash ta'lim sharoitida talabalarga xorijiy tilni o'qitish jarayoniga klasterli yondashuvni tatbiq etishning pedagogik mexanizmi ochiq ta'lim resurslarining (Google for Education) "o'girilgan sinf" texnologiyasi (Flipped Classroom)ni tayyorlov, auditoriya ishi, mustaqil ta'lim bilan sinxron kommunikatsiyaga kirishuv darajasi interaktivligi va refleksivligini ta'limiy maqsadlarga muvofiqligini hisobga olish orqali ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

aralash ta'lim sharoitida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlanganlik darajasini baholashning diagnostik vositalari ishlab chiqilgan;

talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning aralash ta'limga asoslangan texnologik dastur tayyorlangan;

OTMlarning nofilologik ta'lim yo'nalishlarida ingliz tilini aralash ta'lim shaklida o'qitish bo'yicha interfaol dars ishlanmasi ishlab chiqilgan;

nofilologik ta'lim yo'nalishlari uchun ingliz tilini aralash ta'lim shaklida o'qitish metodikasini takomillashtirishning dasturiy ta'minoti ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo'llanilgan yondashuv va usullarning ilmiy-metodik jihatdan asoslanganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olingan natijalarning oliy o'quv yurtlari nofilologik ta'lim yo'nalishlarda ingliz tilini aralash ta'lim sharoitida o'qitish mazmunining boyitishi hamda ingliz tili o'qituvchilari va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmunini xalqaro ilg'or tajribalar asosida nazariy jihatdan takomillashtirishda foydalanish mumkinligi, talabalarda axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik omillari aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan takliflar, ingliz tilini aralash ta'lim sharoitida o'qitishning samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar, yaratilgan elektron o'quv-uslubiy majmua, ishlab chiqilgan dasturiy ta'minot hamda interfaol amaliy mashg'ulot ishlanmalari, talabalarda axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish mezonlari va ko'rsatkichlaridan nofilologik oliy ta'lim muassasalarida talabalarga ingliz tilini tezkor o'qitishda, ta'lim muassasalari uchun ingliz tilini kasbga yo'naltirilgan holda o'qitish bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ingliz tilini oliy ta'lim muassasalari filologik yo'nalish talabalariga aralash ta'lim texnologiyalari vositasida tezkor o'qitish bo'yicha olingan ilmiy natijalar hamda amaliy takliflar asosida:

an'anaviy, masofaviy va internet orqali mustaqil ta'lim olishning integrativ shakllarining kasbiy tayyorgarlik jarayonini jadallashtirishga doir tashkiliy, analitik, diagnostik va prognostik faoliyat bilan gorizontaal va vertikal integratsiyalashning autopedagogik imkoniyatlarini innovatsion ta'lim muhitiga mos holda kengaytirish

orqali aniqlashtirilgan “aralash ta’lim” tushunchasining mazmun-mohiyati va ilmiy-pedagogik xususiyatlari, an’anaviy ta’limda konstruktivizm nazariyasi, avtonom ta’lim hamda Blum taksonomiyasini birgalikda qo’llash, onlayn o’qitishda tadqiqotlar hamjamiyati (Community of Inquiry) nazariyasining kognitiv, ijtimoiy va o’qitishning mavjudligi konsepsiyasi ta’minlash bilan bog‘liq taklif va tavsiyalar “Ingliz tili” o’quv qo’llanmasi mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022 yil 13 maydagi 166-sonli burug‘iga asosan berilgan 166-268-sonli nashr guvohnomasi). Natijada, “aralash ta’lim” tushunchasining mazmun-mohiyati va o‘ziga xos ilmiy-pedagogik xususiyatlarini aniqlashtirishga xizmat qilgan;

kasbiy tayyorgarlik jarayonining motivatsion, kognitiv, faoliyatga doir, aksiologik, akmeologik, reflektiv komponentlarini aralash ta’lim texnologiyalarini erkin va maqbul tanlash, identiv maqsadni belgilash, real sharoitda ta’lim muhitini dinamik tarzda o‘zgartirib borish tamoyillari bilan qayta aloqaga kirishuv darajasi barqarorligini hisobga olish orqali takomillashtirilgan aralash ta’lim sharoitida talabalarga ingliz tilini tezkor o’qitishning metodik tuzilmasi, o’quv materiallarning yirik bloklarga birlashtirish orqali elektron ko‘rinishda o’qitish (Replacement) hamda elektron resusrlardan foydalanish orqali an’anaviy ta’limni tashkil etish (Supplemental) modellarini milliy kredit-modul tizimiga adaptivlik darajasini ta’minlash orqali takomillashtirilgan nofilologik ta’lim yo‘nalishi talabalariga ingliz tilini aralash ta’lim texnologiyalari asosida tezkor o’qitishning didaktik modeli borasidagi takliflar Toshkent davlat pedagogika universitetida amalga oshirilgan Yo0-A1-009 raqamli “Oliy ta’lim muassasalaridagi fanlarni o’qitishning metodik sistemasini ishlab chiqish va shu asosida innovatsion elektron o’quv-uslubiy majmuasini yaratish” (2017-2018 yy.) amaliy loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023 yil 30 maydagi 02-07-2113/04-son ma’lumotnomasi). Natijada, nofilologik yo‘nalish talabalariga ingliz tilini tezkor o’qitishning metodik ta’minotini takomillashtirishga xizmat qilgan;

ochiq ta’lim resusrlarining (Google for Education) “o‘g‘irilgan sinf” texnologiyasi (Flipped Classroom)ni tayyorlov, auditoriya ishi, mustaqil ta’lim bilan sinxron kommunikatsiyaga kirishuv darajasi interaktivligi va reflektivligini ta’limiy maqsadlarga muvofiqligini hisobga olish orqali ishlab chiqilgan aralash ta’lim sharoitida talabalarga xorijiy tilni o’qitish jarayoniga klasterli yondashuvni tatbiq etishning pedagogik mexanizmi borasidagi tavsiyalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanalining DM “Madaniy-ma’rifiy va badiy” eshittirishlar muharriyati tomonidan tayyorlangan “Til millat ko‘zgusi”, “Ta’lim va taraqqiyot”, “Bolalar uchun” nomli eshittirishlarining ssenariylarni tayyorlashda 2022-2023 yillarda samarali foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 15-may 04-36-760-son ma’lumotnomasi). Natijada radiodasturlarda berilgan mazkur ilmiy natijalar orqali tinglovchilarning til o‘rganishga qaratilgan muammolar echimi, so‘ngi yillarda til o‘rganish va o‘qitishda erishilgan yutuqlar, innovatsion izlanishlar haqida o‘qituvchilar bilimlarining takomillashishga xizmat qildi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot ishi natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, xorijiy ilmiy jurnalda 4 ta maqola, 6 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman va 1 ta skopus to'rlamlarida tezislari nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 144 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilish darajasi bayon qilingan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatib o'tilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchligi, nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Klaster sharoitida aralash ta'limni qo'llashning nazariy jihatlari**" deb nomlanadi va unda ta'lim klasteri muhitida aralash ta'limni qo'llashning nazariy asoslari yoritilgan, ingliz tilini o'qitishda aralash ta'limni qo'llash texnologiyasi va metodikalari tahlili amalga oshirilgan.

Jahon va O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda an'anaviy ta'lim onlayn formatlar bilan to'ldiriladigan aralash (gibrid) shakl ta'lim tizimida muqobil ta'lim shakli sifatida keng tarqalmoqda. Tez rivojlanayotgan internet texnologiyalari sababli endi o'qituvchining nazorati ostida o'quvchi sinfda majburiy bo'lishi talab etilmaydi, ammo talaba belgilangan vazifalarni bajarishi va bilim, malaka va ko'nikmalarni (BMK) o'zlashtirishi mumkin. aralash ta'lim - zamonaviy oliy ta'limning tendensiyalaridan biri sifatida qaralmoqda, u yaqin kelajakda o'z dolzarbligini yo'qotmaydi, aksincha rivojlanadi va universitetlarning ta'lim dasturlariga keng kiritiladi. Shu bilan birga, aralash ta'lim tushunchasi yaxshi o'rnatilmagan va ta'lim nazariyasi hamda amaliyotida turlicha talqin qilinadi.

Tadqiqotchilar "aralash ta'lim" (ing: blended learning) tushunchasiga o'zlarining turli munosabatlarini bildirishgan: "Aralash ta'lim - bu o'quv jarayonini tashkil etishning aloqa shakllarini onlayn ta'lim bilan uyg'unlashtirishdan kelib chiqadigan yondashuv emas, balki o'quv kursining tuzilishi va mazmunini qurish, talabalarning individuallashtirilgan o'quv faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlashda jiddiy o'zgarishlarni o'z ichiga oladi"<sup>9</sup>; "Aralash ta'lim - bu o'quv jarayonini tashkil etish texnologiyasi va boshqa zamonaviy o'quv qurollari taqdim

---

<sup>9</sup> "Blended Learning." Center for Teaching Excellence. Cornell University, 16 July 2014. Web. 21 May 2015. <http://www.cte.cornell.edu/teaching-ideas/teaching-with-technology/blended-learning.html>

etgan yangi didaktik imkoniyatlar asosida an'anaviy sinf tizimi texnologiyasi va elektron ta'lim texnologiyasini uyg'unlashtirish konsepsiyasiga asoslanadi"<sup>10</sup>.

Ushbu munosabatlarni tahlil qiladigan bo'lsak, aralash ta'lim tushunchasining asosida o'zaro muloqot, aloqa, ta'sir ko'rsatish mazmuni borligini ko'ramiz. Ayni paytda, aytish joizki, o'qituvchining ta'lim jarayonida o'quv materiallarini mashg'ulotlarda elektron ta'lim resurslaridan foydalangan holda taqdim etishi aralash ta'lim tushunchasiga bog'liq emas.

Sohaga oid adabiyotlardan ma'lum bo'ladiki, «aralash ta'lim» atamasi 2000-yillarda elektron ta'limga muqobil tushuncha sifatida paydo bo'lgan. Dastlab, bu atama elektron ta'lim shaklida mustaqil ta'limga qo'shimcha o'quv shakli sifatida tushunilgan. Hozirgi vaqtda aralash ta'lim turli usullar, muhit va uslublarning kombinatsiyasini anglatadi<sup>11</sup>.

Bizning fikrimizcha, internet-texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan aralash ta'lim global ta'lim axborot tarmog'iga kirishni ta'minlaydi, integratsiya va o'zaro ta'sir tamoyiliga asoslangan bir qator muhim yangi funksiyalarni bajaradi. O'z mahoratini egallashni istaganlar uchun aralash ta'lim doimiy yangilanishlarga imkon beradi. Bunday o'qitish jarayonida talaba mustaqil o'quv materiallarini interaktiv tarzda o'zlashtiradi, nazoratdan o'tadi, bevosita o'qituvchi rahbarligida nazorat qiladi.

Pedagogik tarixiy manbalarni o'rganishdan ayon bo'ladiki, aralash ta'lim g'oyasi dastlab 2000 yillarda uchraydi. M.Kune «aralash ta'lim» atamasini ishlatgan birinchi tadqiqotchilardan biridir. U o'yin elementlarini birlashtirib, maktabda aralash mashg'ulotlarga ega bo'lishni maqsad qilgan<sup>12</sup>. Boshqa tadqiqotchilar esa elektron ta'limni o'qituvchilar boshchiligidagi olti oylik o'quv dasturiga bir vaqtning o'zida elektron ta'limdan foydalanishni kiritganlar.<sup>13</sup> Ularning natijalari jamoaviy hamkorlik hissi va tilning o'rnatilishi va guruhda o'rganish samaradorligining oshishida namoyon bo'ldi. Yana bir tadqiqot Bonk tomonidan harbiy sohada olib borilgan. U o'z maqsadini aralash yondashuv harbiy kurs talabalarining kasbiy rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini tushunishga qaratgan. Ular birinchi bosqichda asinxron internetga asoslangan ta'limni, virtual hamkorlikdagi chat vositasida sinxron o'rganishni va uchinchi bosqichda yuzma-yuz o'rganishni qo'llaganlar.

Aralash ta'limda ishtirok etgan talabalar va o'qituvchilar bilan suhbatlarda uning afzallik va kamchiliklari tilga olinsa-da, umumiy natijalar shuni ko'rsatdiki, onlayn ta'lim yoqimli va moslashuvchandir. Bonk<sup>14</sup> va boshqalar to'liq aralash

---

<sup>10</sup> Miller, Andrew. "Blended Learning: Strategies for Engagement." Edutopia. Herff Jones Nystrom, 12 Oct. 2012. Web. 20 May 2015. <http://www.edutopia.org/blog/blended-learning-engagementstrategies-andrew-miller>

<sup>11</sup> Самарина Н.В., Газизова А.И. Интеграция аудиторной и дистанционной форм обучения иностранному языку в вузе // Проблемы современного педагогического образования. Серия: Педагогика и психология. – 2018. – Вып. 59. м Ч. 2. – С. 316-319.

<sup>12</sup> Cooney M. Blurring the lines of play and work to create blended classroom learning experiences. Early Childhood Education Journal, 27(3), -S.-171

<sup>13</sup> Voice E., Young K. Blended learning working in a leadership development programme. Industrial and Commercial Training, 2001, 33(5), -S. 160.

<sup>14</sup> Bonk C. Learning from focus groups: An examination of blended learning. Journal of Distance Education, 2003, 17(3), -S. 118

o‘quv kursini ishlab chiqmagan, lekin bu turli vaqtlarda yuzma-yuz seans orqali onlayn o‘quv kurslarini qo‘llab-quvvatlashga urinish bo‘lgan edi.

Xalqaro ilmiy ba‘zalarda indekslanadigan xalqaro jurnallarda chop etilgan nashrlarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, aralash ta‘lim muammosiga bag‘ishlangan maqolalarni uch davrga bo‘lish mumkin (1-jadval).

**1-jadval.**

### **Aralash ta‘limga oid maqolalarning statistik tahlili**

| <b>DAVR</b>                | <b>YIL</b> | <b>Chop etilgan maqolalar soni</b> |
|----------------------------|------------|------------------------------------|
| Dastlabki urinishlar       | 1999-2002  | 125                                |
| Ta‘riflar keltirilgan davr | 2003-2006  | 1200                               |
| Ommalashgan davr           | 2007-2009  | 1460                               |
|                            | 2010-2019  | 1660                               |

Ushbu mavzuda chop etilgan ingliz tilli tadqiqotchilarning maqolalariga ko‘plab iqtiboslar keltirilgan<sup>15</sup>.

Styuart<sup>16</sup> madaniyatlararo treninglarda asinxron mashg‘ulot asosidagi ta‘lim bilan sinxron yuzma-yuz o‘quv jarayonini o‘zaro integratsiya qilishni taklif etadi. Shu tarzda “Dastlabki urinishlar davri”, ya’ni an’anaviy ta‘lim bilan onlayn ta‘limni qo‘llab-quvvatlash g‘oyasi sifatida paydo bo‘lgan va aralash ta‘lim bo‘yicha dastlabki tadqiqotlar paydo bo‘ldi, ammo bu davrda aralash ta‘lim bo‘yicha aniq ta‘riflar mavjud bo‘lmagan.


Shuningdek, «aralash ta‘lim»ning kirib kelishi, nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha rossiyalik olimlar ham bir qator ishlar olib borganlar, jumladan; Yu.Kapustin, M.Moxova, M.Orlova, M.Medvedova, V.Fandey va boshqalarning ishlari aralash ta‘lim masalalariga bag‘ishlangan.

O‘quv muassasasida masofaviy ta‘lim jarayonini tashkillashtirishga qo‘yiladigan texnik va dasturiy talablar masofaviy ta‘lim jarayonini amalga oshirishda quyida ko‘rsatilgan bosqichlar asosida amalga oshirish mumkin (1-rasm).

Aralash ta‘lim sharoitida talabalarning pedagogik kompetentligini rivojlantirish, bizning fikrimizcha, kasbiy faoliyatga tezroq moslashish va samarali faoliyat yuritishni talab etayotgan zamonaviy ta‘lim tizimining asosiy talablaridan biridir. Respublikamizda aralash ta‘limni joriy etish borasida muayyan tajribalar to‘plangan, aralash ta‘lim dasturlarini YUNESKO tashkiloti tomonidan qabul qilingan ta‘limning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg‘unlashtirish, o‘quv jarayoniga O‘zbekistonning Milliy kvalifikatsiya tizimini to‘laqonli takomillashtirish va joriy etish boradasi qator muammolar mavjud.

<sup>15</sup> Graham C. Blended learning systems: Definition, current trends, and future directions. 2012, –P. 21; Garrison D., Vaughan N. Blended learning in higher education: Framework, principles, and guidelines. –San Francisco, CA: 2006.; Bonk C., Graham C. The handbook of blended learning environments: Global perspectives, local designs. San Francisco: Jossey-Bass/Pfeiffer. 2006.

<sup>16</sup> Stewart J. A blended e-learning approach to intercultural training. Industrial and Commercial Training, 2002, 34(7), - S. 271



**1-rasm. Masofaviy ta'lim jarayonini tashkil etish bosqichlari**

Ta'lim tizimiga masofaviy ta'limni tatbiq etish muammolari bo'yicha bir qancha tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, respublikamizda masofaviy ta'lim asosida o'qitish muammolari borasida A.A.Abduqodirov, U.Sh.Begimqulov, R.R.Boqiyev, S.S.Jumanazarov, L.G.Babaxadjayeva, N.A.Muslimov, Q.T.Olimov, D.M.Sayfurov, N.I.Taylaqov, R.H.Hamdammov va boshqa<sup>17</sup> ko'pgina olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

N.A.Muslimovning ilmiy-tadqiqot ishida masofaviy ta'lim o'quv-uslubiy majmuasini yaratishning tashkiliy-metodik tamoyillari va elektron darsliklarni yaratishga qo'yiladigan talablar ishlab chiqilgan. Shuningdek, masofaviy ta'limning o'qitish subyektlari hamda o'quv vositalari o'rtasida yuzaga keluvchi o'zaro, maqsadga muvofiq interfaol aloqalarning innovatsion texnologiyasi ekanligi asoslab berilgan. Tadqiqot ishida masofaviy ta'limni amaliy jihatdan tashkil etishda korrespondentlik ta'limi, radiotelevizion ta'lim, tarmoqli ta'lim, mobil texnologiyasi va keys texnologiyasi asosida tashkil etiluvchi ta'lim turlaridan unumli foydalanish mumkinligi isbotlangan<sup>18</sup>.

D.M.Sayfurovning ilmiy-tadqiqot ishida masofaviy o'qitishni ta'minlovchi axborot-ta'lim muhiti modeli asosida o'qituvchi - tyutorning kasbiy sifatleri gipotetik modeli yaratilgan. Tadqiqot ishida masofaviy ta'lim tizimida faoliyat olib

<sup>17</sup> Abduqodirov A., Pardayev A. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. – T.: Fan, 2009. - 145 b.; Abduqodirov A.A. Bo'lajak o'qituvchilarning axborot kommunikatsiya texnologiyalariga oid kompetentligi. - "Pedagogning shaxsiy va kasbiy axborot maydonini loyihalashda axborot kommunikatsiya texnologiyalariga oid kompetensiyalar" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materialari. – T.: TDPU, 2015. -3 b.; Abduqodirov A.A. Masofali o'qitish modellari va ularning sinflari // O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uchun pedagog xodimlar tayyorlash va malaka oshirish tizimining dolzarb masalalari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. - Toshkent: O'MKHTRI, 2004. - B.107-111.; Abduqodirov A.A. Akademik litsey va kasb-hunar kolleji o'qituvchilarining malakasini oshirishda masofali o'qitish metodikasi // Uzluksiz ta'lim. – Toshkent, 2004. - № 5.- B. 8-12.

<sup>18</sup> Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan. dokt. ... dis. - T.: 2007. - 315 b

boruvchi o'qituvchilarning motivatsion, kognitiv-amaliy, emotsional sohalari bo'yicha tayyorgarligini baholash mezonlari ishlab chiqilgan<sup>19</sup>.

Bizningcha, aralash ta'lim uchun moslashuvchan o'quv dasturining yana bir muhim afzalligi shundaki, muammo yoki xatoga duch kelganida talabaning darhol yordam olish imkoniyati bor. Dastur yo'l qo'yilgan xato haqida darhol xabar beradi va ayni masala bo'yicha qo'shimcha o'quv materiallarini taklif qiladi. O'qituvchi eng ko'p uchraydigan xatolar va muammolarni tahlil qilishga imkon beradigan ma'lumotlar to'plamiga ega bo'ladi va shu orqali o'qitish tizimiga tuzatishlar kiritadi. Bilimlar darajasi ko'rsatkichlari o'quv materialini qo'shimcha tushuntirish yoki amaliy topshiriqlar berish uchun talabalarni bilim darajalariga ko'ra guruhlariga ajratishga yordam beradi.

Bizning talqinimizcha, aralash ta'lim texnologiyasi uchta asosiy tashkil etuvchi komponentdan iborat: masofaviy o'qitish (Distance Learning), auditoriyada o'qitish (Face-To-Face Learning) va Internet orqali o'qitish (Online Learning). Ushbu tizimning komponentlari doimiy o'zaro bog'liqlikda ishlaydi va metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi kerak. O'quv fanlarini o'qitishda eng maqbul natijalarga erishish tashkiliy va tarkibiy jihatlariga bog'liq, chunki ta'lim jarayonining barcha elementlari o'zaro ta'sirlashishi va bir butunni tashkil qilishi kerak.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“Ingliz tilini tezkor o'qitishning texnologik tizimi”** deb nomlandi va unda aralash ta'lim texnologiyalari vositasida ingliz tilini tezkor o'qitish modeli ishlab chiqilgan, pedagogik ta'lim klasteri muhitida aralash ta'limni qo'llash texnologiyasi takomillashtirilgan va aralash ta'lim sharoitida ingliz tilini tezkor o'qitishning zamonaviy yondashuvlari aniqlashtirilgan.

Sohaga oid adabiyotlar tahlilidan ayon bo'lmoqdaki, ayni vaqtda “Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik” nomi ostida zamonaviy pedagogik ta'lim texnologiyalari, ta'lim jarayonida o'qitishning innovatsion texnologiyalaridan foydalanish, kompetentlik sifatleri va kreativlik qobiliyatini rivojlantiruvchi ko'nikma qobiliyatiga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazarda ta'limning yangi-yangi shakllari paydo bo'lmoqda. Jumladan, ta'lim tizimiga yangidan kirib kelgan aralash ta'lim pedagogikada tadqiq etilishi talab etilayotgan dolzarb mavzulardan biri sanalmoqda.

Bugungi kun talabasi grammatik tarjima usulidan va ma'ruzalardan qattiq “charchagan” desak, mubolag'a bo'lmaydi. Hozirgi raqobatli va global dunyoda raqobatbardosh kadr bo'lib qolish uchun individual shakllanish talab qilinadi. Buning uchun talabalar ehtiyojlarini qondirishda yangi tendensiyalarni qo'llash kerak. Aralash ta'lim bu kabi muammolarni hal etishda muhim aspekt sifatida qaralayotganini aynan pedagogika sohasiga oid adabiyotlar tahlili ko'rsatmoqda.

Ta'limning innovatsion tendensiyalari elektron ta'lim va texnologiyalarga bog'liq emas, o'qituvchi mashg'ulotda va hatto undan tashqarida o'quv jarayonini rivojlantirish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan usullar mavjud. Uni amalga oshirish, ya'ni ushbu usullarda an'anaviy va innovatsion metodlarni o'zaro kombinatsiyalash o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Bunda kasbiy kompetensiyaga

---

<sup>19</sup> Sayfurov D.M. Kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimida masofali o'qitishning ilmiy-uslubiy asoslari: Ped. fan. nomz. ... dis. - T.: 2005. - 140 b.

asoslangan yondashuv, muammolarni hal qilish, ijodiy fikrlash va tadqiqot yozishni o‘rgatish, shuningdek, quyidagilarga e’tibor qaratish ahamiyatli.<sup>20</sup>

1. **Audio va vizual materiallardan foydalanish:** o‘qituvchilar talabalar tasavvur olamini kengaytirishni maqsad qilishi zarurligi sababli ular g‘oyani yaxshiroq tushunishni ta’minlash uchun o‘z mashg‘ulotlariga audiovizual metodlar va materiallarini kiritishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi.

2. O‘qituvchilik tajribamiz hamda tajriba-sinov ishlarini tashkil etish orqali shunday xulosaga kelindiki, **“Onlayn uyga vazifa”** metodining dars mashg‘ulotlariga kiritilishi uning samaradorligini oshiradi.

3. Aralash ta’limda samarali foydalaniladigan metodlardan navbatdagi **“Sayyor mashg‘ulot”** sanaladi.

4. Ta’lim dasturining nazariy, o‘quv-amaliy qismi professional ta’lim muassasasida, malaka hamda kompetensiyalarni shakllantirish bosqichi maktab, universitet bilan bog‘liq va qolgan nazariy va amaliy qismini onlayn olishi yondashuvning **“50+25+25”** deb nomlanishning mazmunini ifodlaydi. Mazkur yondashuv talabalarning sinflarda vaqt o‘tkazishi va ma’ruzalarni yozib olish bilan bog‘liq vaqtini ortiqcha sarflanishining oldini oladi. Bu esa bo‘ljak mutaxassislarining kasbiy moslashish davrining qisqarishiga yordam beradi.

Dissertatsiyada mazkur metod va yondashuvlarning batafsil tavsifi berilgan.

Tadqiqotda aralash ta’lim texnologiyalari vositasida ingliz tilini tezkor o‘qitish modeli ishlab chiqildi (2-rasm).

Modelning metodologik komponentda talaba shaxsiga nisbatan subyektiv, individual, jamoaviy va tanlov erkinligi kabi yangicha yondashuvlar belgilandi va maqsadga muvofiq ravishda tushuntirish, suhbat, hikoya qilish yod oldirish, namoyish etish, o‘yin, mashq qildirish kabi metodlardan foydalanildi.

Tashkiliy komponentda esa talabalarning ingliz tilini bilish darajasi mezonlari, bosqichlari va ko‘rsatkichlari ishlab chiqildi.


Didaktik komponentda modeldan ko‘zlangan maqsadga erishishning mazmuni sifatida oliy ta’limda xorijiy tilni fanlararo integratsiya asosida o‘qitish belgilangan bo‘lsa, shakllari sifatida individual, kichik guruhlarda ishlash, guruhli ishlash, jamoaviy trening va mualliflik metodikalaridan foydalanildi.

Mamlakatimizda qabul qilingan yangi DTSning maqsadlarini amalga oshirish uchun o‘qituvchilar o‘z faoliyatlarida eski an’anaviy usullardan uzoqlashishi, innovatsion texnologiyalarning imkoniyatlarini o‘z faoliyatiga joriy etishi kerak. Chet tilini o‘qitish ham bundan mustasno emas. Davlat ta’lim standartida oliy ta’lim muassasalarining ixtisosligi chet tili bo‘lmagan fakultetlari bakalavriat bosqichi bitiruvchilari, oliy ta’lim muassasalarining ixtisosligi chet tili bo‘lmagan fakultetlari magistratura bosqichi bitiruvchilari hamda oliy ta’lim muassasalarining ixtisosligi chet tili bo‘lgan fakultetlari bakalavriat bosqichi bitiruvchilari (ikkinchi chet tili), demakki, nofilologik OTM bitiruvchisi bo‘lishi kerak bo‘lgan universal kompetensiyalardan biri bu chet tilida og‘zaki va yozma shakllarda rasmiy aloqalarni amalga oshirish qobiliyati sifatida baholanadigan V2 darajaga ega

---

<sup>20</sup> Pawlowski J. Lerntechnologiestandards: Gegenwart und Zukunft, in: Was macht E-Learning erfolgreich – Grundlagen und Instrumente der Qualitätsbeurteilung, – Berlin et al.: Springer 2004, – S. 93-110.

bo'lishdir. V2 darajaga ega bo'lgan har bir talabdan quyidagi kompetensiyalar talab etilishi me'yoriy hujjatlarda aniq ko'rsatib o'tilgan.



**2-rasm. Aralash ta'lim texnologiyalari vositasida ingliz tilini tezkor o'qitish modeli**

Qo'llaniladigan zamonaviy innovatsion texnologiyalarning muvaffaqiyat ko'rsatkichlari ularning samaradorligi; tejamkorligi (muayyan vaqt birligida katta hajmdagi ma'lumotni o'zlashtirish); ergonomikligi (hamkorlikda o'rganish, zo'riqib ishlamasdan qulay emotsional mikroiklimning mavjudligi); fanni o'zlashtirishda ijobiy motivatsiyani shakllantirish, bu esa o'z samarasini berib tinglovchilarning shaxsiy fazilatlarini "kashf etish", o'qitishda tezkor rivojlanish zonasiga ta'sir o'tkazish imkoniyatini yaratib beradi.

Tadqiqotimiz davomida ishlab chiqilib, juda samarali qoʻllangan navbatdagi texnologiya bu – «onlayn uyga vazifa»ni qayd etishimiz mumkin. U ingliz tilini oʻqitishning innovatsion texnologiyasi sifatida amaliy darsda olingan materiallarni mustahkamlash, nazorat qilish va oʻz-oʻzini nazorat qilishning asosiy usullaridan biri sifatida uy vazifalarini bajarishni muammosiga bagʻishlangan. <https://learningapps.org/> internet xizmati yordamida muallif tomonidan bir guruh talabalar bilan **“Onlayn uy vazifa”** ni amalga oshirildi. Bu talabalar oʻrtasida uy vazifalarini ommalashtirishga hissa qoʻshishi hamda bilim sifatini, maʼlumot bilan ishlash mahoratini oshirishi isbotlandi. Uy vazifasi oʻquv jarayonining zaruriy elementi, ayniqsa chet tili fani boʻyicha, chunki u talabaga olingan bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi, nazorat qilish va oʻz-oʻzini nazorat qilishning kuchli vositasidir. Ammo afsuski, soʻnggi yillar ichida uy vazifasini bajarishga talab yoʻqoldi va hozirgi paytda koʻplab talabalar buni amalga oshirish uchun tegishli motivatsiyaga ega emasligi, koʻpincha talabalar uchun tayyor javob banklaridan foydalanish yoki kursdoshlaridan koʻchirib olish osonroq boʻlishining guvohimiz, bu esa oʻquv jarayonida uy vazifasining ahamiyatining yoʻqolishiga olib kelmoqda.

Aralash taʼlim va uning pedagogik xususiyatlari yoritilgan adabiyotlarni oʻrganishdan uning quyidagi oʻziga xosliklari maʼlum boʻladi:

1. Aralash taʼlim tadqiq etilgan qator manbalarda uning ikki koʻrinishi 1) «onlayn + kunduzgi» taʼlim va 2) «onlayn + avtonom» taʼlim tilga olinadi. Ikkinchi koʻrinishi «masofaviy taʼlim» tushunchasiga juda yaqin. Biz oʻz tadqiqotimizda chalkashliklarga yoʻl qoʻymaslik uchun aralash taʼlimni faqat birinchi koʻrinishida, yaʼni raqamli va anʼanaviy (jonli) taʼlimning («online + life») kombinatsiyasi sifatida koʻrib chiqishni toʻgʻri deb sanaymiz.

2. “Online + life” formatida amalga oshirilayotgan taʼlim jarayonini tavsiflovchi “aralash taʼlim” (Blended learning) atamasi bilan bir qatorda soʻnggi paytlarda “gibrid taʼlim” (Hybrid learning) atamasi ham koʻp qoʻllanila boshlaganini sohaga oid tadqiqotlarni oʻrganishdan koʻrishimiz mumkin. Shu bilan birga turli manbalarda ushbu atamalarning nisbati turlicha talqin qilinadi:

toʻliq sinonimlar sifatida;

taʼlimning muqobil shakllari sifatida.

Ammo bizning oʻrganishlarimizga koʻra, aralash taʼlimda online va life formatlar bir-biri bilan almashinadi, gibrid taʼlimda esa bu formatlar parallel ravishda amalga oshiriladi: baʼzi talabalar darsga kunduzi, boshqalari (masalan, NSH (nogiron shaxslar)) esa - masofaviy ulanish yondashuvlaridan foydalangan holda qatnashadilar. Biz ikkinchi yondashuvga tayanamiz va shuning uchun aralash taʼlimni onlayn (online) va kunduzgi (life) taʼlim formatlarini rotatsiyaini oʻz ichiga olib, oʻquv jarayonini tashkil etish shakli sifatida tushunamiz.

3. Oʻrganishlarimiz shuni koʻrsatdiki, koʻpgina nashrlarda, shuningdek, qator meʼyoriy, yoʻriqnoma-uslubiy-qoʻllanma hujjatlarda aralash taʼlim oʻquv jarayonini tashkil etishning oʻziga xos modellaridan biri, deb qaraladi<sup>21</sup>. Shu bilan birga amaliyot shuni koʻrsatadiki, taʼlim jarayonida «online + life» formulasi turli

---

